

VAYRONKOR G‘OYALARGA QARSHI KURASH – MA’NAVYI MAKONNI ASRAB-AVAYLASH VOSITASI

Mamatkulov Eldor Safarovich

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

FIGHT AGAINST DESTRUCTIVE IDEAS - A TOOL TO PRESERVE THE SPIRITUAL SPACE

Mamatkulov Eldor Safarovich

Doctoral student of Termiz State University

БОРЬБА С РАЗРУШИТЕЛЬНЫМИ ИДЕЯМИ – ИНСТРУМЕНТ СОХРАНЕНИЯ ДУХОВНОГО ПРОСТРАНСТВА

Маматкулов Эльдор Сафарович

Докторант Термезского государственного университета



e-mail:

eldor.mamatkulov@mail.ru

<https://orcid.org/0008-0002-0812-711X>

Tel.: +998 94 623 89 52

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi ma’naviy makonni yaratishda bunyodkor g‘oyalarning ahamiyati, vayronkor g‘oyalarga qarshi kurashning roli borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, ekstremizm, terrorizm, radikalizm, ksenofobiya, ommaviy madaniyat kabi destruktiv g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish usul va vositalari borasida taklif hamda tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviy makon, bunyodkor g‘oyalar, destruktiv g‘oyalar, ekstremizm, terrorizm, shovinizm, ksenofobiya, ommaviy madaniyat.

Abstract: This article examines the importance of constructive ideas in creating a new spiritual space and the role of combating destructive ideas. Suggestions and recommendations were also made regarding methods and means of developing ideological immunity against destructive ideas such as extremism, terrorism, radicalism, xenophobia, and mass culture.

Keywords: spiritual space, constructive ideas, destructive ideas, extremism, terrorism, chauvinism, xenophobia, mass culture.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение конструктивных идей в создании нового духовного пространства и роль борьбы с деструктивными идеями. Также были сделаны предложения и рекомендации относительно методов и средств формирования идеологического иммунитета против деструктивных идей, таких как экстремизм, терроризм, радикализм, ксенофобия, массовая культура.

Ключевые слова: духовное пространство, конструктивные идеи, деструктивные идеи, экстремизм, терроризм, шовинизм, ксенофобия, массовая культура.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ma’naviy makon - bu moddiy makonga xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan makondir. Shu bilan bir qatorda makonning ushbu ikki turida falsafiy nuqtai nazardan bir-biridan tubdan farq qiluvchi jihatlar ham namoyon bo‘ladi. Muhtaram Prezidentimizning ta’biri bilan aytganda, ma’naviy makon biz orzu qilayotgan Yangi O‘zbekistonning

ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir [1]. Darhaqiqat, bugungi tahlikali zamonda, yadro poligonlaridan ko‘ra mafkuraviy poligonlar tobora xavfli ko‘rinish kasb etib borayotgan bir davrda ma’naviy makonning sofligini saqlab qolish, uni turli xil axborot xurujlari, mafkuraviy tahdidlardan saqlay olish jamiyat va xalq

kelajagini belgilab beruvchi muhim omillardan biriga aylanib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ИИТЕПАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ma'naviy makon tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati borasiga bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" nomli kitobida "Yangi ma'naviy makon" tushunchasi, unga xavf soluvchi zamonaviy tahdidlar, ushbu tahdidlardan saqlanish metod va usullari borasida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Yurtboshimizning ushbu kitobida mazkur masala borasida so'z borar ekan, bugungi zamonaviy destruktiv g'oyalardan saqlanish uchun allomalarning boy ma'naviy merosi, ibratli hayot yo'lini xalq orasida targ'ib va tashviq qilishning ahamiyatiga alohida urg'u berilgan [1].

Shuningdek, yurtimizda yangi ma'naviy makon masalasiga Andijon mashinasozlik instituti tadqiqotchisi Mamasiddiq To'lanov ham o'zining bir qancha tadqiqotlarida, ilmiy maqolalarida alohida to'xtalib o'tgan. Rossiyalik zamonaviy olimlardan biri, Tomsk davlat arxitektura-qurilish universiteti dotsenti Trofimova Galina Ivanovna bir qator tadqiqotlarida ma'naviy makon, uni yangilashning jamiyat ma'naviy-ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rnini masalasiga to'xtalib o'tgan.

Vayronkor g'oyalarga qarshi kurashning usul va vositalariga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, analogik tahlil, germenevtika kabi bir qancha metod va usullardan samarali foydalanildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Bugungi zamonaviy dunyoda jamiyatning ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir qiladigan, ma'naviy makon soffligini buzadigan mafkuraviy tahdidlar, axborot xurujlari yetarlicha topiladi. Bu kabi tahdidlar orasida bugungi globallashuv davrida yosh avlod ongiga salbiy ta'sir qiluvchi, jamiyatning dinga bo'lgan ijobiy munosabatidan foydalanishga qaratilgan vayronkor g'oyalar ayniqsa xavfli ko'rinish kasb etmoqda. VIII asrda yashagan alloma, kotib va davlat arbobi Abdulloh ibn Muqaffa (724-759-y.y.) o'zining "al-Adab as-sag'ir" ("Kichik odob kitobi") nomli asarida

shunday yozadi: "Din Alloh taolo tomonidan o'z xalqiga berilgan eng buyuk ne'matdir, din manfaatlarning eng oliysi, hikmatlarning eng afzalidir. Ammo johil kishilar, garchi din va hikmatdan uzoq bo'lsalar ham, ularning fazlidan o'z johilliklari yo'lida foydalanmoqchi bo'ladilar" [5]. Ya'ni insoniyat tarixiga nazar tashlasak, har doim vayronkor kuchlar, jamiyatning ma'naviy qiyofasiga zarar keltirish uchun asosan diniy omildan foydalanishga harakat qilib kelganlar. Bu kabi destruktiv g'oyalar bugungi kunda ham dunyoda global muammolar sifatida e'tirof etiluvchi ekstremizm, terrorizm, radikalizm, ksenofobiya kabi g'oyalarning yoyilishiga xizmat qilmoqda. Ushbu g'oyalarga qarshi kurashda insoniyat har doim ma'rifiy metodlardan keng foydalanib kelgan. Xususan, buyuk vatandoshimiz Imom Buxoriyning "al-Jome as-sahih" asarini yozishga undagan asosiy omillardan biri ham adashgan oqimlarga raddiyalar berish, to'qima hadislar paydo bo'lishi va ularning jamiyat ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishining oldini olishdan iborat bo'lgan. Shuningdek, Imom Termiziyning "Sunan Termiziy", Imom Moturidiyning "Ta'vilot al-Qur'on" kabi asarlarini ham o'z davridagi turli buzg'unchi oqimlar, adashgan firqalarga qarshi kurashga xizmat qilgan manbalar qatoriga kiritishimiz mumkin.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). O'zbekiston mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, ma'naviyat sohasiga, ma'naviy makon soffligiga erishishga birlamchi vazifa sifatida qarab kelgan. Mustaqillik tufayli mamlakatimizda ushbu soha har tomonlama rivojlanib, allomalarimizning boy ma'naviy merosini o'rganishga keng imkoniyatlar yaratila boshlandi. Ayniqsa so'nggi yillarda bu boradagi ishlar ancha jadallashganligini alohida qayd etish joiz. Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni [1], 2017-yil 14-fevraldagi PQ-2774-son "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 28-avgustdagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi,

2021-yil 16-iyuldagi PQ-5186-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari [3] soha faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi.

Misr arab Respublikasi, Saudiya Arabistoni qirolligi, Birlashgan arab amirliklari va boshqa mamlakatlar tajribasidan ma‘lumki, ekstremizm, terrorizm, radikalizm, ksenofobiya, xotin-qizlar radikalizmi kabi illatlarga qarshi kurashishning eng samarali vositasi ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibot tadbirlari hisoblanadi [6]. Bu kabi illatlarga faqatgina shu usul orqali kurashish yaxshi samara beradi. Shuni inobatga olgan holda, Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da belgilab berilgan “Yangi O‘zbekiston – ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish uchun hozirgi kunda butun Respublikamiz hududida “Jaholatga qarshi ma‘rifat”, “Biz ekstremizmga qarshimiz”, “Yoshlar yot g‘oyalarga qarshi”, “O‘zbekiston – buyuk allomalar yurti”, “Termiziyalar avlodimiz” kabi mavzularda ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilib kelinmoqda. Ushbu targ‘ibot tadbirlarining ko‘lami yildan-yilga kengayib borayotganligini ham alohida qayd etib o‘tish joiz.

Shuningdek, 2017-yildan boshlab mamlakatimizda faoliyati yo‘lga qo‘yilgan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi kabi muassasalarda yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning boy ma‘naviy merosini tadqiq etish, ularning asarlarini xalqchil tarzda tarjima qilish, ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘llaridan guvohlik beruvchi xalqchil, om-mabop risolalar tayyorlash amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Yosh avlod ongiga buyuk allomalarning sof ma‘rifat bilan sug‘orilgan umuminsoniy g‘oyalarni singdirish ham vayronkor g‘oyalarga qarshi kurashning samarali metodlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, so‘nggi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida turli adashgan oqimlar ta‘siriga tushib qolgan yurtdoshlarimizni vatanga qaytarish, ularni rehabilitatsiya qilgan holda sog‘lom hayotga qaytarish amaliyoti ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu ham jamiyatdagi ma‘naviy muhitni

sog‘lomlashtirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi tajribalardan biri hisoblanadi.

XULOSA(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi turli mafkuraviy xurujlar, axborot tahdidlari kuchaygan davrda ma‘naviy makon musaffoligini saqlay bilish nihoyatda murakkab, mas‘uliyatli vazifa hisoblanadi. Axborot-telekommunikatsiya vositalari rivojlanib borgani sari vayronkor g‘oyalar ham turli-tuman shakllarda namoyon bo‘lib boradi. Shularni inobatga olgan holda nafaqat real borliqda, shuningdek kibermakonda ham ma‘naviy barqarorlikni saqlab qolishga erishishimiz, radikalizm, ekstremizm, terrorizm kabi vayronkor g‘oyalar, xavf-xatarlardan jamiyatimizni asrashimiz lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni. // Xalq so‘zi, 2022-yil, 28-yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5186-sonli qarori. // Xalq so‘zi, 2021-yil, 16-iyul.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021. – B. 464.
4. Abdulloh ibn al-Muqaffa Al-Adab as-sag‘ir. Ahmad Zakiy Posho tadqiqi. – Iskandariya: Jamia al-urva va-l-vusqa islamiyya, 1911. – 108 b.
5. Бурняшева Л.А., Газгиреева Л.Х. Духовный кризис ценностных оснований: социально-философский дискурс проблемы // Перспективы науки. - Тамбов. -№ 2 (17). - 2011. - С. 48.
6. Mamatqulov, E. (2023). Ma‘naviy makonni yaratish jarayonida milliy-madaniy meros tushunchasi. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (7), 290-294.
7. Mamatqulov, E. (2022). Yangi o‘zbekistonda ma‘naviy makonni yaratish borasidagi asosiy vazifalar. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(9), 402-406.